XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 27-oktabr VII-15-97-8-110-K/25 Boysun tumani

Boysun tumanidagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 38-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qaroriga 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj,ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomining 10-bandiga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Boysun tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini

takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Boysun tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Boysun tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Boysun tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi **quyidagi** takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiysonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun **88 ta** ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 4,6 foiz (4 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 2,2 foiz (2 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 92,1 foiz (81 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 0,0 foiz (0 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 1,1 foiz (1 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 0,0 foiz (0 kishi);

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Boysun tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Boysun tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Boysun tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi 2-qismiga asosan muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha xalq deputatlari Boysun tuman Kengashining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Boysun tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Q.Ermamatov):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini ilovada ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin. aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha xalq deputatlari Boysun tuman Kengashining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Boysun tuman hokimining 2024-yil 31-oktabrdagi 166-8-110-Q/24-son qarori 31.12.2025-yildan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror rasman e′lon qilingan kundan boshlab ikkioydan so‘ng kuchga kirishi belgilansin

11. Tuman hokimligi axbort xizmati rahbari (Y.Xoliyorov) mazkur qarorning “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinishi hamda hokimlik rasmiy veb- saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Abdullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi XAITOV BEKMUROT KARIMOVICH

Xalq deputatlari Boysun tumani Kengashining
2025-yil 27-oktabrdagi
VII-15-97-8-110-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Boysun tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRI	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
JAMI:			**6258**	**254**	**88**	**4**	**2**	**81**	**0**	**1**	**0**
1	"BOYSUN DAVLAT O‘RMON XO‘JALIGI" DAVLAT MUASSASASI	**201325009**	140	4	2	1	0	1	0	0	0
2	"BOYSUN TUMAN YO‘LARDAN FOYDALANISH KORXONASI" DAVLAT MUASSASASI	**201325110**	176	8	2	1	0	1	0	0	0
3	"BOYSUN TUMAN MADANIYAT BO‘LIMI" DAVLAT MUASSASASI	**201325181**	54	5	1	0	0	1	0	0	0
4	"BOYSUN TUMAN 3-SON POLITEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI	**201389554**	64	8	1	0	0	1	0	0	0

5	"BOYSUN TIBBIYOT BIRLASHMASI" DAVLAT MUASSASASI	**201389618**	1444	54	6	1	1	3	0	1	0
6	"BOYSUN TUMAN 1-SON POLITEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI	**201389633**	87	3	1	0	0	1	0	0	0
7	OBODONLAShTIRISh BOShKARMASI	**206564064**	296	1	3	1	1	1	0	0	0
8	"BOYSUN TUMAN SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI BO‘LIMI"	**202070041**	90	6	1	0	0	1	0	0	0
9	53-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI	**202300062**	30	1	1	0	0	1	0	0	0
10	"BOYSUN TUMAN 25-SONLI UMUMTA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**202329943**	67	5	1	0	0	1	0	0	0
11	"BOYSUN TUMAN 39-SONLI UMUMTA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**202376736**	86	4	1	0	0	1	0	0	0
12	"BOYSUN TUMAN 33-SONLI UMUMTA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**202566318**	83	1	1	0	0	1	0	0	0
13	BOYSUN TUMAN 17-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI	**202604499**	64	3	1	0	0	1	0	0	0
14	BOYSUN TUMAN 5-SONLI UMUMTA’LIM MAKTABI	**202691266**	98	8	1	0	0	1	0	0	0
15	BOYSUN TUMAN 4-SONLI UMUMTA’LIM MAKTABI	**202691274**	80	1	1	0	0	1	0	0	0
16	"BOYSUN TUMAN 7-SONLI DAVLAT" MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI	**202777632**	44	4	1	0	0	1	0	0	0
17	"BOYSUN TUMAN 1-SONLI UMUMTA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**203111320**	109	8	1	0	0	1	0	0	0
18	3-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI	**203168756**	70	9	1	0	0	1	0	0	0
19	BOYSUN TUMAN 47-SONLI CHUQURLASHTIRIB O‘QITISHGA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB	**203168764**	99	2	1	0	0	1	0	0	0
20	"BOYSUN TUMAN 6-SONLI UMUMTA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**203168771**	150	7	1	0	0	1	0	0	0
21	"BOYSUN TUMAN 35-SONLI UMUMTA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**203168788**	87	2	1	0	0	1	0	0	0
22	"BOYSUN TUMAN 32-SONLI UMUMTA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**203364814**	66	2	1	0	0	1	0	0	0
23	"BOYSUN TUMAN 7-SONLI UMUMTA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI DAVLAT KORXONASI	**203370443**	63	5	1	0	0	1	0	0	0
24	"BOYSUN TUMAN 45-SONLI UMUMTA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI DAVLAT KORXONASI	**203379501**	67	1	1	0	0	1	0	0	0
25	28-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI	**203489095**	68	2	1	0	0	1	0	0	0

26	"BOYSUN TUMAN 10-SONLI UMUMTA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**203613559**	46	8	1	0	0	1	0	0	0
27	"BOYSUN TUMAN 6-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**205232762**	31	2	1	0	0	1	0	0	0
28	"BOYSUN TUMAN 2-SON POLITEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI	**205783742**	76	3	1	0	0	1	0	0	0
29	36-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	**206862635**	64	4	1	0	0	1	0	0	0
30	"BOYSUN TUMAN 29-SONLI UMUMTA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**206862643**	52	1	1	0	0	1	0	0	0
31	27-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	**206862674**	45	1	1	0	0	1	0	0	0
32	"BOYSUN TUMAN 16-SONLI UMUMTA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**206862682**	45	1	1	0	0	1	0	0	0
33	41-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	**206862699**	49	2	1	0	0	1	0	0	0
34	"BOYSUN TUMAN 23-SONLI UMUMTA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**206862707**	36	1	1	0	0	1	0	0	0
35	"BOYSUN TUMAN 42-SONLI UMUMTA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**206862714**	46	1	1	0	0	1	0	0	0
36	37-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	**206862739**	70	5	1	0	0	1	0	0	0
37	"BOYSUN TUMANI 12-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**206862746**	44	1	1	0	0	1	0	0	0
38	11-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	**206862754**	65	6	1	0	0	1	0	0	0
39	48-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	**206862761**	34	3	1	0	0	1	0	0	0
40	"BOYSUN TUMAN 43-SONLI UMUMTA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**206862801**	77	1	1	0	0	1	0	0	0
41	22-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	**206862818**	37	2	1	0	0	1	0	0	0
42	"BOYSUN TUMAN 31-SONLI UMUMTA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**206862825**	61	3	1	0	0	1	0	0	0
43	"BOYSUN TUMANI 38-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI DAVLAT KORXONASI	**206862833**	42	2	1	0	0	1	0	0	0
44	"BOYSUN TUMAN 26-SONLI UMUMTA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**206862840**	31	2	1	0	0	1	0	0	0
45	8-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	**206865314**	50	3	1	0	0	1	0	0	0
46	"BOYSUN TUMAN 9-SONLI UMUMTA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**206865568**	49	6	1	0	0	1	0	0	0
47	18-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	**206865583**	34	1	1	0	0	1	0	0	0
48	40-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	**206865615**	53	3	1	0	0	1	0	0	0
49	44-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	**206865623**	48	1	1	0	0	1	0	0	0
50	46-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	**206865630**	84	4	1	0	0	1	0	0	0

51	50-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI	**206865647**	39	2	1	0	0	1	0	0	0
52	14-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI	**206866012**	46	2	1	0	0	1	0	0	0
53	"BOYSUN TUMAN 54-SONLI UMUMTA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**206938135**	34	1	1	0	0	1	0	0	0
54	"BOYSUN TUMAN 1-SONLI DAVLAT" MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI	**207004141**	68	2	1	0	0	1	0	0	0
55	"BOYSUN TUMAN 2-SONLI DAVLAT" MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI	**207004158**	63	1	1	0	0	1	0	0	0
56	"BOYSUN TUMAN 4-SONLI DAVLAT" MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI	**207030277**	63	1	1	0	0	1	0	0	0
57	"BOYSUN TUMAN 11-SONLI DAVLAT" MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI	**207030284**	65	3	1	0	0	1	0	0	0
58	"BOYSUN TUMAN 8-SONLI DAVLAT" MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI	**207030292**	51	1	1	0	0	1	0	0	0
59	"BOYSUN TUMAN 10-SONLI DAVLAT" MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI	**207084115**	52	2	1	0	0	1	0	0	0
60	"BOYSUN TUMAN 9-SONLI DAVLAT" MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI	**207084123**	31	1	1	0	0	1	0	0	0
61	56-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI	**207084606**	30	2	1	0	0	1	0	0	0
62	"BOYSUN TUMANI SPORT MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**207112672**	55	4	1	0	0	1	0	0	0
63	"BOYSUN TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI BO‘LIMI " DAVLAT MUASSASASI	**207116571**	64	3	1	0	0	1	0	0	0
64	"BOYSUN TUMAN 15-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**207285309**	26	1	1	0	0	1	0	0	0
65	"SPORTNING MILLIY KURASH TURIGA IXTISOSLASHGAN MAKTAB-INTERNAT" DAVLAT MUASSASASI	**303433724**	38	1	1	0	0	1	0	0	0
66	"BOYSUN TUMAN 13-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**305398015**	92	1	1	0	0	1	0	0	0
67	"BOYSUN TUMANI 59-SONLI UMUMTA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**306618704**	29	1	1	0	0	1	0	0	0
68	BOYSUN TUMAN 62-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI	**306642605**	39	1	1	0	0	1	0	0	0
69	"20-SONLI BOYSUN TUMANIDAGI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**306664554**	39	1	1	0	0	1	0	0	0

70	"O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI BOYSUN TUMAN IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	**309858634**	66	2	1	0	0	1	0	0	0
71	"BOYSUN TUMAN 21-SON DAVLAT" DAVLAT MUASSASASI	**310121438**	29	1	1	0	0	1	0	0	0
72	5-SON MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI	**207308578**	38	2	1	0	0	1	0	0	0
73	12-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI	**207329702**	28	1	1	0	0	1	0	0	0
74	13-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI	**207329719**	35	0	1	0	0	1	0	0	0
75	"BOYSUN TUMAN 14-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI"	**309111148**	30	1	1	0	0	1	0	0	0
76	"BOYSUN TUMAN 17-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI"	309111170	27	1	1	0	0	1	0	0	0
77	"BOYSUN TUMAN 15-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI"	309111194	40	0	1	0	0	1	0	0	0
78	"BOYSUN TUMAN 16-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI"	309111234	45	2	1	0	0	1	0	0	0
79	"BOYSUN TUMAN 20-SON DAVLAT" MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI	310053997	45	2	1	0	0	1	0	0	0